

BADIIY ASAR TAHLILI “QUTLUG‘ QON” ROMANI ASOSIDA

Aliyeva Dilshoda

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

Choriyeva Munisa Odil qizi

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Ashurova Muhayyo Rustam qizi

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asardagi bosh qahramonlarining ko'rgan qiyinchiliklari ,mansaparastlik , kambag'allarning soddaligidan foydalanish,bosh qahramon bo'lgan Yo'lgining sof sevgisi toptalganligi ,uning qoni nega qutlug' bo'lganligi yoritib beriladi. Bundan tashqari urug'-qabila munosabatlari ,hokimiyat mardlik ,vatanparvarlik ,va hayot -mamot kurashlari badiiy tarzda yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: qahramonlik,qarindosh urug'chilik,adolat,vatan,faqir va savob, insoniylik,sofdillik,jasurlik,milliy birlik, sadoqat,fidoiylk, manaviy kuch, xoinlik va bo'linish,davlat barpo etish.

O'zbek adabiyotida tarixiy romanlar xalqning o'tgan asirdagi jasoratini, fidoiyligini va birlikka intilishini yoritadi. Har bir xitobxon tarixiy asar o'qiganda ,shu davir hayotini his qilishi mumkin. Ushbu roman kitobxonni o'tgan zamonning ruhiy va tarixiy olamiga chorlaydi.Oybekning “Qutlug' qon” asari ham shunday asarlardan biri bo'lib, qadimiy turkiy elning tarixi, ajdodlar ruhi, va milliy qadriyatlarni sahnaga olib chiqadi va buyerda qarindosh urug'chilik munosabatlari ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Asarda yo'lgining kambaga'l oilada tug'ilib boy tog'asidan yordam so'rab kelganidan boshlanadi .Yo'lgining bir singlisi va onasi bo'lib ularni bitta o'zi boqishga majbur boy tog'a esa xasis va ochko'z edi. Asardagi boy tog'aning yoshi yetmishdan oshgan farzandlari bor ayoli ham o'ziga o'xshagan manaviy kambag'al bo'lgan. Jamiyatning qashshoqligi,

juratsizligi, o'qimaganligidan o'zlarini huquqlarini bilishmaydi, himoya qilishga kuch topaolishmaydi. Yo'lchi manaviy boy obriz sifatida tariflangan, ammo hayot uni juda qiyin sinovlar bilan qiyinchiliklarga duchor qiladi. Romanning markazida qutlug' qon so'zi turadi yaniy bu so'zni ma'nosi nma haqida ; U jasur, dono, elning kuni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan qahramon sifatida tasvirlanadi. U nafaqat boshlovchi, balki xalqning ruhiy tayanchi, ma'naviy rahnamosidir. Bu qutlug' qon so'zi jasorat, poklik va kuchning ramzi sifatida talqin qilinadi. Yo'lchining manaviy kuchlaridan biri uni sevgan qizi Gulnor xizmaztkor qiz bo'lsa-da, halol, soddadil va pokiza sevgi sifatida tasvirlangan. Asarda davlat boshqaruvi uchun tortishuvlar, farzandlarning otasi bilan tortishuvlari, yosh qizning baxti qurbon bo'lishi ayanchli tasvirlangan. Bu asarda siyosiy kurashlar va ma'naviy qadriyatni yoritadi. Asar markazida turkiy elning ijtimoiy hayoti, siyosiy kurashlari va ma'naviy qadriyatlarni yoritadi. Asar markazida turkiy urug'ning o'zaro birlashish g'oyasi, elning mustahkam turishi, vatanparvarlik va jasorat kabi tushunchalarni qayta qayta ko'ramiz. Mualif asarda tarixiy voqealarni badiiy ruhda qayta tiklab, bir xalqning shakkanishi jarayondagi murakkabliklar, ichki ziddiyatlar va tashqi bosqichlar orqali milliy ruhni ko'rsatadi. Asarda Yo'lchi bo'layotgan noxaqliklardan charchaydi va xalqni uyg'otadi. [1]

Oybekning «Qutlug' qon» romanining bosh qahramoni Yo'lchi - mard, halol, oqko'ngil, olijanob yigit. Ma'lumki, inson o'zi qanday bo'lsa, o'zgalar haqida ham shunday o'ylaydi. Shuning uchun ham Yo'lchi shahardagi qarindoshlardan mehr-u muruvvat kutadi. U o'ziga qilinadigan yaxshiliklar evaziga halol mehnati bilan badal to'lay oladi. Buni siz romanda yigitning mehnatdan qo'rqmasligi, ishning ko'zini bilishi tasvirlangan o'rinlardan payqab olasiz.

Asarning ushbu nashrida asorda uchraydigan ilmiy, tarixiy atamalarga, ruscha va baynalmilal so'zlarga alohida izoh va iqtiboslar berildi va hozirgi o'zbek adabiy til qoidalari asosida qayta ishlandi.[2]

Romanda jabirdiyda, ma'sum va baxtsiz qiyofada tasvirlangan gulnor timsoli alohida e'tiborga molik. Oybek gulnorning ruhiy olamini, dardini, hislarinigina emas, balki uning atrofida ro'y berayotgan tabaqaviy kurashlarni va gulnor ham

bevosita ana shu kurashlar hukmiga tushib qolganini yorqin bo'yoqlarda ta'sirli tarzda tasvirlangan. Asarni o'qigan kitobxon gulnorning fojiali achinadi. Romanda ijobiy obrazlar qatoriga gulsunbibi o'zi bir olam sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat mehribon ona, balki odamgarchilikni har narsadan ustun qo'yuvchi haqiqiy inson. Gulsunbibi qiyofasida itoatkorlik, erining rayiga qarshi bormaslik farzandini ko'rishi mumkin. Asarni yakuniy qismida qahramon xalqni uyg'otishga muvafaq bo'ladi va o'zi vafot etadi. Uning qoni odiy qon emas muqaddas, qutlug' qon. [3]

Xulosa qilib aytganda yosh avlodga zamonaviy talablar asosida bilim berishdan tashqari ularga Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashda ajdodlarimiz meroslaridan, badiiy adabiyotdan keng foydalanish kerak. Yoshlar o'rtasida vatanga muhabbat, yurtga sadoqat tuyg'ularining kamol topishda badiiy asarlarning o'rni kattadir. Buni his qilib yashayotgan kishilar millat faxriga aylanishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oybek "Qutlug' qon" romani Oltin qalam nashriyoti Toshkent-2024 yil
2. Ahmad Farg'oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxonasi markazi -2022 yil
3. Oybekning "Qutlug' qon" romanida yurtga sadoqat tuyg'ulari -2022
4. Oybek "Qutlug' qon" G'afur G'ulom nomidagi nashriyoti Toshkent-2019